



UÓK: 635.6

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA QOVOQ (CUCURBITA) EKININI ETISHIRISH AGROTEXNIKASI

Jadigerova Mirzagul Sarsenbaevna

Qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori, PhD, assistent
Qoraqalpo‘g‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
e-mail: m.jadigerova@mail.ru

D.Karimbaeva., U.Imalatdinova

4-kurs Sabzavotchilik talabalari

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17537759>

Annotaciya. Maqolada qovoqning ozuqaviy va davolash-profilaktik xususiyatlari va mevalaridan oziq-ovqat ishlab chiqarishda foydalanish nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oshqovoq, biologik faolmoddalar, vitamin C, R-faol moddalar, makro-mikroelementlar, pektinlar.

Аннотация. В статье анализируются пищевые и лечебно-профилактические свойства тыквы в кулинарии и использование ее плода в производстве пищевых продуктов.

Ключевые слова: тыква, биологически активные вещества, витамин С, Р-активные вещества, макро-микроэлементы, пектины.

Abstract. The article analyzes nutritional and treatment-and-prophylactic properties of pumpkin in the light of the use of its fruits in food production.

Keywords: pumpkin, biologically active substances, vitamin C, P-active substances, macro-micro elements, pectins.

Kirish. Qovoq qovoqdoshlar oilasiga mansub poliz ekini. Qovoqning yirik mevali qovoq, muskatsimon qovoq va qattiq postli qovoq kabi 3 turi keng tarqalgan. X.Ch.Buriev (1992) qovoq ekinlarining rivojlanishi, biologiyasi va urug‘ mahsuldorligini órgangan va ótkazgan tajribalar shuni kórsatganki bunda u oshqovoq ósimliklarining gulining rivojlanishi, bir tur ósimlik navlaridagi gul turlari va ularning miqdori, gul morfologiyasi, meva elementlarining kelib chiqish dinamikasini órgangan. Uning kórsatishicha, qovoqning muskat turiga kiruvchi Palov-qádi 268 navi ósimliklarida 5 tipdagi gullar rivojlanadi: funksional va chin erkak; funksional-chin analiq; germofroditli; yirik qovoqning bir tupida 300-350 otalik va 10-18 onalik gúl paydo bóladí.

N.N.Balashev (1976) Ózbekiston Respublikasining hududlarida poliz ekinlarining biologik va morfologik xususiyatlarini, ularni yetishtirish agrotexnikasi haqida ilmiy málumotlar keltirgan.

Materiallar va uslublar. Respublikamizda hozirgi kunda qovoqdosh ekinlarni etishtirishda yangi agrotexnologiyalarni qollash, ekin maydonlarini



kengaytirish va yuqori hosil olish koʻzda tutilgan. Fermer xoʻjaliklari, klasterlar va aholi tomorqa xoʻjaliklarida dala madaniyatiga eʼtibor berish, dala maydoni chetlaridan unumli foydalanishda qovoq ekinini etishtirish hamda mahsulot eksportini yoʻlga qoyish koʻzda tutilgan. Xalqimizning sogʻlom turmush tarzini yaratishda qovoq mahsulotining oziga xos oʻrni boʻlib, u shifobaxshligi, vitaminlarga boyligi bilan qadimdan maʼlum.

Respublikamiz fermer xoʻjaliklari va shaxsiy tomorqalarda qovoqning 140 dan ortiq nav namunalari uchraydi, bulardan muskat qovoqlari 40-45% ni, yirik mevali qovoqlar 30-35% ni va qattiq poʻstli qovoqlar 25-30% ni tashkil etadi.

Qovoq 4 ta kenja turkum va 25 turni oʻz ichiga oladigan Cucurbita L. turkumiga kiradi. Oʻzbekistonda ekiladigan qovoqlar morfologik va xoʻjalik-biologik belgilariga ega boʻlgan 3 ta turga kiradi: 1. Qattiq poʻstli yoki oddiy qovoq – C. Pepo L. 2. Yirik mevali qovoq – C. maxima Duch. 3. Muskatqovoq – C. moschata Duch.

Qovoq urugʻining tarkibida 50% gacha moy boʻlib, poʻsti yumshoq silliq urugʻli navlari ekilganda gektaridan 600-700 kg moy olish mumkin. Qovoqni em-xashak sifatida, qish boʻyi yaxshi saqlanadigan xashaki navlari shirali ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. Qoraqalpogʻiston sharoitida qovoqning davlat reestriga kiritilgan Batler F1, Ispanskaya 73, Kashgarskaya 1644, Stofuntovaya navlarini ekish tavsiya etiladi. Ekiladigan qovoq urugʻi toza, yuqori unuvchan, kasallik yuqmagani, oʻrtacha kattalikda, butun boʻlishi zarur.

Qovoq etishtirishda erni ekishga tayyorlash muhim qadamdir. Kuzda er 35 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Erni shudgorlashdan oldin mineral va organik oʻgʻitlar beriladi. Bahorda tuproqda namni saqlab qolish uchun erga uzun tishli xaskash yordamida ishlov beriladi. Qovoq ekinini erta muddatlarda ekilganda erni bahorda qayta shudgorlashning hojati yoʻq. Ekinlar kechki muddatlarda ekilganda erni qayta shudgorlash zarur. Bunda tuproqni agʻdarmasdan turib, 22 sm chuqurlikda chopib chiqiladi.

Natijalar va munozaralar. Qovoq urugʻlari Respublikamiz hududida aprel oyining birinchi dekadasida, gektariga 3-5 kg miqdorida ekiladi. Ekish chuqurligi 4-6 smni tashkil etadi. Urugʻlar 10-15°C da unib chiqadi, 20-30°C haroratda normal rivojlanadi. Qovoq navlariga qarab 110-140 kunda pishib etiladi.

Nihollari yalpi unib chiqishi bilan qator oralarini yumshatishga kirishiladi. Nihollar unib chiqqach 20–25 kun oʻtgach, 2–3 chin barg paydo boʻlgandan keyin ekin birinchi marta chopiq qilinadi. Dastlabki suv berilib, oziqlantiriladi. Ikkinchi chopiq birinchisidan 25–30 kundan keyin oʻtkaziladi. Oʻsuv davrida qator oralari 4–5 marta chopiq qilinadi.



Xulosalar va tavsiyalar. Qovoqning o’suv davri mobaynida tuproq namligini sugorish oldidan eng kam nam sigimiga nisbatan 75–80% saqlash talab qilinadi. Ekinga 1 sotixga 4–5 m³/ga me`yorda 5–6 marta suv berib, tuproqning shu darajada nam bo’lishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Т.Е.Остонакулов, В.И.Зуев, О.Қ.Қодирхожаев «Сабзавотчилик» Дарслик Тошкент-2009.
2. С.А. Юнусов «қовоқ етиштириш» 100 китоб тўплами Тошкент - 2021
3. Erejeпова G.T., Jadigerova M.S. «Sabzavot eginleri biologiyasi» Darslik. Toshkent-2025
4. Ismailov U. E., Qutlimuratova D.B. Diyqanshiliq ham melioraciya. Mir-aziz MCHJ. Oqiw qollanba. Nókis 2025 j.